

Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2017 yil 1-chorak asosiy tadbirlar rejasining bajarilishi va 2-choragiga ustuvor vazifalari bo'yicha

hisoboti

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri – Fuqaro muhofazasi boshlig'ining 2016 yil 30 dekabrda "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha 2016 yilda bajarilgan tadbirlar yakuni va 2017 yildagi vazifalar to'g'risida"gi 5-sonli buyrug'ida belgilangan barcha tadbirlar o'z vaqtida va to'liq bajarilishiga erishildi:

vazirlikning hududiy boshqarmalari, "O'zgidromet" markazi, Geologiya va mineral resurslar Davlat qo'mitasi hamda mahalliy hokimiyatlar xodimlari bilan hamkorlikda suv toshqinlari, sel oqimlari va ko'chki xavfi mavjud hududlar o'rganib chiqilib, xavfli hududlarda joylashgan xo'jaliklar, iqtisodiyot ob'ektlari va boshqa muassasalar haqida ma'lumotlar olinib, hududiy boshqarmalarga tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun yuborildi;

sel va ko'chki mavjud bo'lgan respublika bo'yicha ko'chirilishi lozim bo'lgan **104 ta** xo'jaliklardan (483 nafar aholi) xavfsiz hududlarga ko'chirildi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 21 yanvardagi "2014-2016 yillarda va istiqbolda 2020 yilgacha suvlarni O'zbekiston Respublikasi suv oqimlari bo'ylab barqaror va xavfsiz o'tkazib yuborish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 13-sonli qarori ijrosi yuzasidan, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlari hokimliklari tomonidan, 2017 yilning 1 choragi davomida viloyatlardagi mahalliy hokimliklar balansidagi daryo va soylar o'zanlarini tozalash va qirg'oq hamda gidrotexnika inshootlarini mustahkamlash ishlari olib borilishi tashkil etildi, jumladan, jami **21868 ming m³ tuproq, 48 m³ tosh ishi, 2049 beton va 196450 p/m** o'zan tozalash ishlari amalga oshirildi;

2016 yil 1 choragida respublika hududlarida joylashgan o'ta muhim, toifalangan va yong'in-portlash xavfi mavjud ob'ektlarning fuqaro muhofazasi holati jami **62 ta** tekshiruvlar o'tkazildi;

Vazirlik hududiy boshqarmalarining Aholi va rahbarlar tarkibini tayyorlash markazlari tomonidan joylarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish borasida korxonalar, tashkilotlar, o'quv ta'lim muassasalarida, shuningdek mahallalarda ish bilan band bo'lmagan aholi o'rtasida jami **2013 marotaba** suhbatlar o'tkazilib, mazkur suhbatlarda jami **99802 nafar** fuqarolar ishtirok etishdi.

Fuqaro muhofazasi institutida 2017 yilning hisobot davri mobaynida Aholi va rahbarlar tarkibini tayyorlash markazlari tomonidan **8482** nafar turli toifadagi rahbarlar qayta tayyorgarlikdan o'tkazildi.

Aholini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda xavfsizlikni ta'minlash borasidagi profilaktik chora-tadbirlarni ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot etish maqsadida, respublikada nashr etilayotgan gazeta va jurnallarda **214 ta** maqolalar chop etilib, radioda **428 ta** va televidenie orqali **658 ta** chiqishlar amalga oshirildi.

Favqulodda vaziyatlar, Oliy va oʻrta maxsus taʼlimi, Xalq taʼlimi boshqarmalari va “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati hududiy tizimlarining masʼul xodimlari bilan hamkorlikda Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi taʼlim muassasalarida faoliyat olib borayotgan “Yosh qutqaruvchi” koʻngillilar klublari oʻrtasida shahar va tuman bosqichining musobaqalari oʻtkazildi. “Yosh qutqaruvchi” musobaqasining 2016-2017 oʻquv yilidagi umumtaʼlim maktablari oʻrtasidagi shahar va tuman bosqichlarida jami **1265 ta** umumtaʼlim maktablaridan **10120 nafar, 751 ta** oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi muassasalaridan **6008 nafar** oʻquvchilar jalb etilgan. **35216 nafar** kishi musobaqalarda bevosita kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan. Joriy yilning oʻtgan davrida jami **185 ta** tuman va shaharlarda musobaqalarning quyi bosqichlari tashkil etilib, oʻtkazildi.

2017 yil 1 chorak mobaynida hududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining Avariya-qutqaruv otryadlari tomonidan aholiga yordam koʻrsatish boʻyicha jami **2039 ta** chiqishlar amalga oshirildi.

Respublikamiz hududidan xavfli tranzit yuklar va kuchli taʼsir etuvchi zaharli moddalarning tranzit tashuvini nazorat qilish va tranzit xavfli yuklarni olib oʻtilishi yuzasidan belgilangan tartibda Mudofaa vazirligiga **7 ta**, Tashki iktisodiy alokalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga **2 ta** xulosalar hamda hududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarmalariga **1 ta** koʻrsatma yuborildi.

1 chorak davomida Sogʻliqni saqlash vazirligi, Veterinariya, “Oʻztransgaz” AK, IIB YOXB, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaharida hududiy FVBlari RBB(b)MB boʻlimlari boshchiligida is gazidan va botulizmdan zaharlanish va qutirish kasalligini oldini olish, “Odamlar va xayvonlar oʻrtasida quturish kasalligini tarqalishini oldini olish” “Oʻzbekiston Respublikasi hududidagi Krim-Kongo gemorragik isitma kasalligini chetdan kirib kelishi”, “Kuchli taʼsir etuvchi zaharli moddalar Zararli chigirtkalarga qarshi kurashish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish” mavzulari boʻyicha seminarlar, hamkolikdagi va koʻrgazmali MTOʻMlar oʻtkazildi.

“Oʻzmetkombinat” AJ, “Uzbekinvest” eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasi, “Uzagrosugʻurta”, “Kafolat” sugʻurta kompaniya AJlarni Fuqaro muhofazasi tuzilmalarining favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik holati tekshiruvdan oʻtkazildi va uslubiy yordam koʻrsatildi.

FVDT hududiy va funksional quyi tizimlari boshqaruv organlari, kuch va vositalarining tayyorgarligini oshirish maqsadida, respublika viloyatlarida 1 chorak mobaynida jami **9 ta** qoʻmondonlik-shtab oʻquv mashqlari va iqtisodiyot obʻektlarida jami **67 ta** maxsus-taktik oʻquv mashqlari oʻtkazildi. Oʻquv mashqlarida jami **92041 nafar** kishi fuqarolar oʻqitildi **1907 ta** muxandislik texnika jalb qilindi.

2017 yil 1 chorak mobaynida vazirlikka fuqarolardan jami **73 ta** ariza va shikoyatlar kelib tushib, qonunda belgilangan muddatlarda chora-tadbirlar amalga oshirildi va ariza mualliflariga oʻz vaqtida javob xatlari yuborildi.

Olib borilgan tahlillar natijasiga koʻra, 2017 yil 1 chorak mobaynida respublika hududida **44 ta** favqulodda vaziyat roʻy berib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan (2016 yilning shu davrida **26 ta**) **41%ga** koʻpaygan.

Sodir boʻlgan favqulodda vaziyatlar oqibatlarida jami **76 nafar** kishi jabrlangan (2016 yilning shu davrida **39 nafar kishi**), oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 51% ga koʻpaygan, halok boʻlganlar **95 nafar** kishi (2016 yilning shu davrida **48 nafar kishi**), oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 9,5% ga koʻpaygan.

Favqulodda vaziyatlarning sodir bo'lishiga asosan iqtisodiyot ob'ektlaridagi texnologik asbob-uskunalarining eskirganligi, fuqarolarning avtomobil vositalarini boshqarishda, gaz uskunalaridan foydalanishda xavfsizlik hamda sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilmasliklari sabab bo'lmoqda.

1 chorak mobaynida Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari **24 ta** xalqaro anjumanlarda ishtirok etishdi (shundan **8 tasi** chet elda). Xalqaro anjumanlarda ishtirok etgan vazirlik xodimlari, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi chet el mamlakatlari tajribalarini tizimimiz faoliyatiga tadbiq etishni ta'minladilar.

2017 yil 2 chorak uchun ustuvor vazifalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tizim faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan Farmon va qarorlar ijrosini to'liq va o'z vaqtida ta'minlash;

Vazirlik tizimiga kiritilgan Gidrometeorologiya xizmati markazi, "Davsuvxo'jaliknazorat" DI, Kichik hajmdagi kemalarni nazorat qilish inspeksiya hamda Seysmografik kuzatuv tuzilmalarning samarali faoliyatini ta'minlash bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 19 fevraldagi PQ-585-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, 2016 yilda amalga oshirilgan ishlar yakuni va 2017 yil bahor-yoz mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash yuzasidan Toshqinga qarshi Hukumat komissiyasi yig'ilishini o'tkazish;

Yozgi cho'milish mavsumida suv xavzalarida fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Gidrotexnika inshootlari (to'g'onlar, dambalar, kanallar, selxonalar, sel traktlari), shuningdek respublikaning umumiy foydalanishdagi ko'priklari hamda daryo va soylar o'zanlarining xavfli uchastkalari holatini o'rganib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sel va toshqin suvlarini xavf-xatarsiz qabul qilish hamda avariyasiz o'tkazib yuborishni tashkillashtirish va nazorat qilish;

viloyatlarda suv toshqini va ko'chki hodisalaridan aholini muhofaza qilish ishlarining olib borilishini tekshiruvdan o'tkazish va amaliy yordam ko'rsatish;

tegishli vazirlik va idoralar tomonidan A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining "Qamchiq" dovonida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan muhandislik-texnik himoya tadbirlari bajarilishini joyiga chiqqan holda o'rganish va amaliy yordam ko'rsatish;

xavfli gidrometeorologik va ekzogen geologik jarayonlar xavfi mavjud hududlardagi ob'ektlarni xatlovdan o'tkazish bo'yicha aerokuzatuv ishlari amalga oshirish;

toshqin, sel oqimlari kelishi mumkin bo'lgan hududlardagi daryo, soy, kanal, kollektorlar o'zanlarining toshqin suvlarini o'tkazish qobiliyatiga salbiy ta'sir etuvchi inshootlarni inventarizatsiyadan o'tkazish hamda qirg'oqlarda noqonuniy qurilgan bino, qurilma va inshootlarni ko'chirish hamda buzib tashlashni amalga oshirish;

"Fuqarolarning qarovsiz hayvonlardan jabrlanishi va quturish kasalligini oldini olish oyligi"ni o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 8 iyuldagi 202-sonli "Qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish va saqlash bilan bog'liq xizmatlar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan vazifalar yuklatilgan xizmatlarni kompleks tekshiruvdan o'tkazish;

Favqulodda vaziyatlar vazirligi